

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARGA HUQUQ FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

*Jumanazarova Rayyona Muradullayevna*  
*TDYU qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi*  
*akademik litsey 2 -kurs 2-guruh o'quvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchilarga huquq fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish masalalari haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, AKT, mustaqil fikrlash, didaktik o'yin, muammoli ta'lim, modulli ta'lim, kommunikativ ta'lim.

**Аннотация.** В данной статье даны комментарии по вопросам использования интерактивных методов преподавания права учащимся в общеобразовательных школах.

**Ключевые слова:** педагогическая технология, ИКТ, самостоятельное мышление, дидактическая игра, проблемное обучение, модульное обучение, коммуникативное обучение.

**Annotation:** This article provides comments on the use of interactive methods of teaching law to students in secondary schools.

**Keywords:** pedagogical technology, ICT, independent thinking, didactic game, problem-based learning, modular learning, communicative learning.

Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo

haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkoniyatini beradi.

O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash bo'yicha o'qituvchilar tajribalarini umumlashtirib, fanlararo aloqadorlikda tashkil etiladigan darslarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Ko'rgazmalilik asosida tashkil etiladigan darsda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlarni bajarish uchun qo'llaniladigan o'quv fanlariaro aloqador elementlarning turli jadval va modellarda ifodalanganligi asosida.

2. Mavzularning bir-biriga o'xshashligi: o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismida o'quvfanlariaro aloqadorlikdan foydalanish asosida darsning samaradorligini oshirish.

3. Umumlashtirish - o'quv fanlarining umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini mukammal o'rgatish maqsadida turli o'quv fanlari bo'yicha maxsus tashkil etiladigan takrorlash-umumlashtirish darslarida o'quvchilarning egallagan bilimlarini takrorlashga imkon yaratish. Agarda, dars jarayonida quyidagi didaktik shartlarga amal qilinsa, o'qitishga mujassam yondashishda samaradorlikka erishiladi: o'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish; o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish; darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashda o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini jadallashtirishning turli vositalaridan unumli foydalanish. Chunonchi, aralash o'quv kurslari bo'yicha, muammolilik, ko'rgazmalilik, mustaqil ishlar, individual topshiriqlar tashkil etish yordamida bunday maqsadga erishish mumkin.

O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars materiallarini o'quvchilarga chuqurroq singdirishda boshqa dars materiallaridan foydalanish, mazkur materiallarning mazmun jihatidan o'zaro aloqador bo'lishi. Bunda, takrorlovchi, umumlashtiruvchi, yangi materialni o'rganish, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat darslari ham bo'lishi mumkin.

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda shaxsga moslangan yo'nalish faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat berishni nazarda tutadi. Bunda uning shaxsiy fazilatlarini, qobiliyatlari alohida ko'rsatiladi, uning qiziqishlari hisobga olinadi. Shu maqsadda "Atamalar izohi", «Juftini top», «Aql charxpalagi», kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin davomida diqqat -e'tibor birgina bolaga qaratiladi. (Masalan, har bir bola o'z ismining bosh harfiga atab biror bir atamani aytadi. " Didora-Doro I .qadimgi Fors shoxi").

"Juftini top" o'yinida o'quvchilarga savollar va ularning javoblari yozilgan tarqatmalardan tadan tarqatiladi. 10 nafar o'quvchi tarqatmalar asosida savollarning to'g'ri javoblari bilan juftlashishlari kerak. Bilim olish, badiiy hayotiy masalalarni hal qilishda o'ziga xoslikni uddaburonlikni, epchillikni rag'batlantirish nazarda tutiladi. Shu munosabat bilan bolalarning mustaqil fikrlashi, o'z ustida ishlashi va turli davrlarni qiyoslash qobiliyatini shakllantirish lozim. Shunday ekan ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabi.

So'nggi yillarda ta'lim huquq fanini o'qitishda noan'anaviy usullardan keng foydalanilmoqda. Huquq darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati katta. Chunki o'quv jarayoni ilg'or pedagogik

texnologiyalar asosida tashkil etilsa ,o'quvchilarning erkin fikr yuritish qobiliyati shakllanishiga va rivojlanishiga xizmat qiladi. Agar o'qituvchi innovatsion faoliyatda ish olib borsa ,ularning yangilikka intiluvchanligi ,izlab topishga ,darslarda qo'llashdga doir oid bilim va malakasi shakllanadi,o'z ustida uzluksiz ishlash ko'nikmasi hosil bo'ladi.Innovatsiya o'quvchilarni o'quv jarayonining harakatlantiruvchi kuchiga aylantiradi .Bu esa o'z navbatida ,ta'lim jarayonida sifat va samaradorlikni ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida O'quvchilarning huquqiy bilimi va huquqiy madaniyati rivojlanadi. O'quvchilarning intellektual salohiyati oshadi. Ta'lim sifati va samaradorligi oshadi.O'quvchi qiyin mavzularni oson o'rganadi.O'quvchining o'zi o'rganishi uchun ma'suliyati shakllanadi.Bunda o'rgatish muhim emas,o'rganish muhim, degan haqiqatni o'qituvchi yoki ota-onalar emas, balki har bir o'quvchining o'zi tushunib yetadi.

### **Foydalanilgan adabuyotlar:**

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni
2. M.Inoyatova, A.Nosirov, M. Diyanova, G.Boymurodova "Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash"
3. "Huquq va burch" jurnal 7-son, 2011.